

Sobirov Zufarjon

Mirzadavlatova Diyoraxon

Farg'ona davlat universiteti

Tabiiy fanlar fakulteti talabalari

ANNOTATSIYA: *Oziq-ovqat xavfsizligi butun dunyo mamlakatlari oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biridir. BMT ham bugun oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish va ularni taqsimlash bo'yicha yondashuvni mutlaqo o'zgartirish vaqti kelganini ta'kidlayapti.*

Kalit so'zlar: *oziq-ovqat muammosi, ochlik, daromad, xavfsizlik, qishloq xo'jaligi, investorlar va hamkorlar.*

Kirish. Butun jahon oziq-ovqat muammosi, ochlikka qarshi kurash va ular bilan bog'liq bo'lgan turli kasalliklar milliy davlatlar ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining ajralmas qismidir.

Oziq-ovqat xavfsizligi - bu xavflarni kamaytirish va iste'molchilarga zarar yetkazmaslik uchun oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishning barcha davrlarida oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlashning xavfsiz usullari va tartiblarini qo'llash, oziq-ovqat kasalliklari va shikastlanishlarining oldini olish uchun oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlash, qayta ishlash va saqlash tartiblari tushuniladi. Ilmiy fan sifatida, oziq-ovqat xavfsizligi, kimyo, mikrobiologiya va muhandislik kabi ko'plab ilmiy sohalarga asoslangan. Bu turli xil fikrlash tizimlari oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, tayyorlash, saqlash yoki sotish qayerda bo'lmasin, oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash xavfsizligini ta'minlash uchun birlashtirilgan.

Qishloq xo'jaligi dunyodagi eng katta ish beruvchi tarmoqdir. Bugun yer yuzi aholisining 40% aynan shu soha orqali tirikchilik qiladi. Bu qishloqlardagi oilalar uchun daromad keltiruvchi va bandlikni ta'minlovchi asosiy manbadir. Rivojlanayotgan mamlakatlarda asosan lalmi bo'lgan besh million kichik

fermer xo'jaliklari oziq-ovqatning 80 % yetkazib beradi. Shunday ekan, mazkur jabhaga investitsiya kiritish aholi qatlamlari oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash qatorida mahalliy va tashqi bozorlarga mahsulot yetkazib berish bo'yicha mamlakat imkoniyatlarini oshiradi. Yaqinda BMT tomonidan sohada yana bir tashabbusga qo'l urildi. Ya'ni oziq-ovqat mahsulotlari isrofgarchiligiga qarshi kurashish bo'yicha global kampaniya e'lon qilindi. Bu ham aynan oziq-ovqat xavfsizligiga xizmat qiladi.

Shunday ekan, oziq-ovqat xavfsizligini masalasi barcha davlatlar qatori O'zbekistonning ham mustaqilligi, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy barqarorligini ta'minlash garovi hisoblanadi. Yurtimizda bu muammo hamon o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Zero, ayni paytda oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talab oshyapti, aholi soni o'sishi asnosida jon boshiga iste'mol ko'paymoqda.

Xulosa Binobarin, so'nggi uch yilda mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifatini va eksport salohiyatini oshirishga bo'lgan yondashuv mutlaqo o'zgardi, davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylantirildi. Muxtasar qilib aytganda, mamlakatda oziq-ovqat mahsulotlari narxini pasaytirish, sifat va xavfsizligini ta'minlash, chayqovchilik holatlariga chek qo'yish, byurokratiyani bartaraf etish, xorijiy investorlar va hamkorlar bilan muntazam muloqot va hamkorlikni yo'lga qo'yish borasidagi barcha muammo va sun'iy g'ovlarga chek qo'yilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Abdug'aniyev A., Abdug'aniyev A.A. Agrar siyosat va oziq-ovqat xavfsizligi (darslik)- T.: TDIU, 2004.
2. Iqtisodiyotning agrar sektori. T.Jo'rayev, Sh. Allayarov, X.Asatullayev, T. Umarov, Ma'ruzalar matni. -T.: TIM, 2012
3. Hakimov R., Otaqulov M., Yusupov E., Yusupov M., Agrosanoat majmui iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2004.
4. Salimov T., Hamdamov Q.S., Tursunxo'jayev T. L., To'xtayev T.I., Xakimov R.X., O'roqov N.L., Aripov I.M. Jahon qishloq xo'jaligi. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2004.

5. «Umumiy oziq-ovqat texnologiyasi» fanidan ma’ruzalar matni. Toshkent2013.
6. Vasiev M, Dodaev Q, Isabaev I, Sapaeva Z, Gulyamova Z “Oziq-ovqat texnologiyasi asoslari”Toshkent – 2012 y Voris nashriyoti.
7. <https://xs.uz>
8. <https://www.foodsafely.org/>
9. <https://lib.bimm.uz/>
10. <https://www.hufocw.org>